

"O'zbekiyosanoat" AJ Malayziya kompaniyalari bilan hamkorlikni kengaytiradi

// 10.02.2025

<https://uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-aj-malayziya-kompaniyalari-bilan-hamkorlikni->



Keyingi yillarda O'zbekiston va Malayziya o'rtasidagi hamkorlik aloqalari mustahkamlanib, tobora kengayib bormoqda. Ayni paytda turli sohalar, jumladan, iqtisodiyot, savdo, ta'lim, madaniyat va turizm kabi yo'nalishlarda ko'plab yirik loyihalar amalga oshirilmoqda.

Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 4-5-fevral kunlari ushbu mamlakatga rasmiy tashrifi ikki davlat o'rtasidagi o'zaro manfaatli munosabatlarning yangi bosqichiga turtki berdi.

Tashrif doirasida Prezidentimiz va Malayziya Bosh vaziri ishtirokida Kuala-Lumpur shahrida o'tkazilgan qo'shma biznes-forum esa ikki mamlakat ishbiarmonlari va sanoat korxonalariga yangi investitsiya portfellarini shakllantirish imkoniyatini taqdim etdi.



Ushbu forumda "O'zkimyosanoat" AJ raisi o'rinbosari Akbar Qurbonov boshchiligidagi delegatsiya ham mamlakatimiz kimyo sanoati salohiyati va investitsiya loyihalari taqdimotini o'tkazdi.

Bundan tashqari Jamiyat vakillarining Malayziyaga tashrifi doirasida mazkur davlatning yirik kompaniya vakillari bilan hamkorlikka oid qator uchrashuvlar ham tashkil etildi.

Jumladan, "Petronas" kompaniyasining direktorlar kengashi raisi Moxd Bakke Sallex bilan bo'lib o'tgan muzokarada birgalikda MTO texnologiyasi asosidagi loyihalarni amalga oshirish masalalariga e'tibor qaratildi. Shu bilan birga kadrlar tayyorlash yo'nalishida "Petronas" texnologiya universiteti bilan hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha o'zaro fikr almashildi.

"Sparco Engineering" kompaniyasi boshqaruvchi direktori Sumasni Sulaymon bilan kechgan muloqotda hamkorlikning istiqbolli yo'nalishlari, jumladan, kimyo sanoatida investitsiya loyihalarini ishlab chiqish va amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.



Tomonlar formaldegid, titan dioksidi va malein kislotasini birgalikda ishlab chiqarish imkoniyatlariga alohida e'tibor qaratdilar. Malayziya kompaniyasi vakillari ushbu loyihalarda ishtirok etishga qiziqish bildirib, ularning salohiyati yuqori ekanini ta'kidladi.

Export-Import Bank of Malaysia Berhad (EXIM Bank Malaysia) tijorat bo'yicha bosh direktori Foiza Mustapa xonim bilan o'tkazilgan muzokarada O'zbekiston kimyo sanoati sohasining rivojlanish sur'atlarini hisobga olgan holda Malayziya kompaniyalari vakillari bilan birgalikda mamlakatimiz hududida amalga oshirilayotgan loyihalarni moliyalashtirish imkoniyatlari ko'rib chiqildi.

"O'zkimyosanoat " AJ Matbuot xizmati